

DERMATOGLIFIKA METODI VA DAKTILOSKOPIYA

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy
fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi talabasi
Yigitaliyeva Gulhayoxon Murotali qizi
yigitaliyevagulhayo0@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dermatoglifika va daktiloskopiya metodlarining mazmuni, qo‘llanish sohasi va ularning amaliy ahamiyati yoritilgan. Dermatoglifika inson teri naqshlarini o‘rganishga, daktiloskopiya esa shaxsni barmoq izlari orqali aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:Dermatoglifika, daktiloskopiya, palmskopiya, plantoskopiya,teri tojlari,. Dermatoglifik tahlil, daktiloskopiya tarixi .

Dermatoglifika - bu inson qol va oyoq kafti, barmoqlar uchlarida turli chiziqlardan hosil bolgan rasmlarning irsiy o‘zaro bir-biriga bog’liqligini o‘rganuvchi fan. «Dermatoglifika» atamasi (derma - teri, gliphe - chizmoq) 1926-yil aprel oyida o‘tkazilgan Amerika anatomlarining Assotsiatsiyasi 42-sessiyasida Kamminson va Midlo tomonidan taklif etilgan. Frencis Galton dermatoglifika asoschisi sanilib, u 1892-yilda uning tarmoqlarini, jumladan, barmoq «naqshlari» bo‘yicha insonlaming etnik farqlarini aniqlagan va ularning atrof-muhitga moslashishda o‘mi mavjudligini ko‘rsatgan. Galton ilk marta barmoq naqshlarining uchta asosiy turini taklif etdi: aylana (whorl), halqa (loop) va yoy (aron).

Dermatoglifikaning quyidagi usullari farqlanadi: daktiloskopiya (barmoq uchlari rasmlari); palmskopiya (panja rasmi); plantoskopiya (oyoq kafti rasmi). Teri tojlari (papillar chiziqlar) epidermisning chiziqli qalinlashishidir. Epidermal qirralar cho‘qqilarida ter bezlari teshikchalari ko‘rinib turadi, bezlar esa dermaning qalin qavatida yotadi. Turli dermal so‘rg‘ichlar kapillar va sezuvchi asab tolalarining oxirlarini tutadi.

Dermatoglifik tekshirishlar genetik amaliyotda klinik ko‘rikdan o‘tkazishning zaruriy qismi sanaladi. Dermatoglifik tahlil, ayniqsa, noaniq tabiatli patologiya yoki teratogen ta’sirotga gumon qilinganda muhimdir. Xromosoma patologiyalarda dermatoglifikaning tashxisiy ahamiyatini yaqqol ko‘rish mumkin, masalan, Daun kasalligi mavjud bemorlarning 95% da kasallikni tashxislash uchun terining sakkizta belgisini qo‘llash yetarlidir.

Biroq xromosom kasalliklar va bir qator monogen kasalliklarda kuzatiluvchi bosh miya morfogenezining buzilishni aniqlashda dermatoglifikaning tashxisiy ahamiyati kattadir. Bosh miya tuguni nuqsonlari bilan kuzatiluvchi Rubinshteyn-Teybi va De Lange sindromlarida dermatoglifikaning o‘ziga xos patologiyasini yaqqol ko‘rish mumkin.

1 - rasm. Kaft (a), kaft m aydonlari, triradiuslar, chiziq va naqshlar (b)topografiyasi: a qism: 1-4 - barm oqlar orasidagi oraliq; I-IV - barmoqlararo yostiqchalar; Th - tenar; H - gipotenar; Pfm-ph - panja-falanga bukiuvchi burmalari; Pfd- d is ta 1 k□ ndalang bukiluvchi burmalar; Pfpl - proksimal ko‘ndalang bukiluvchi burmalar; Pfp - bosh barmoq bukiluvchi burmasi;Pfc - bilak bukiluvchi burniasi; b qisrn: 1-3 - kaft maydoni; a, b, d, e -barmoqlar triradiuslari; A, B, D, E - bosh kaft chiziqlari; t, t', t" - karpal, oraliq va markaziy o‘q triradiuslari. Dermatoglifik tahlil imkoniyatlari to‘g‘risidagi zamonaviy bilimlami jamlagan holda tibbiyotning qator sohalarida ushbu tahlilni o‘tkazish samarali hisoblanadi:

- noaniq etiologiyali homila patologiyalarining letal shakllari;
- homila rivojlanishining ortda qolishining sindromal shakllari;
- somatik asimmetriya;
- xromosom mozaitsizm;
- «genning keng koiamliligi» sindromi (conliguous genesyndromes)',
- oyoq-qoilaming tug‘ma nuqsonlari;
- noaniq etiologiyali tug‘ma nuqsonlarning sindromal shakllari;
- psixomotor rivojlanishning orqada qolishi yoki oligofreniya;
- akrodisplaziya;• ektodermal displaziylar;
- biriktiruvchi to‘qima displaziyalari;

- jins anomaliyalari;
- teri burmalari displaziysi;
- teratogen ta'sirotlari

Derma teri belgilarini tahlil qilishda quyidagilami farqlash mumkin: I) tug‘ma anatomik xususiyatlari va nuqsonlar; II) barmoq, kaft va oyoq kafti bukiluvchi burmalari; III) xususiy dermatogiflik belgilar, ya’ni teri rasmlari.

Daktiloskopiya qanday kashf qilingan? Savolga javob beish orqali bayon qilamiz. Uilyam Hershel XIX asrning oxirlarida Buyuk Britaniyaning Hindistondagi ma’muriyatida xizmat qilardi. U maosh olish uchun keladigan askarlar soni yildan yilga ko‘payib borayotganligiga hayron bo‘ladi. Bu hodisaning tagiga hech yetolmasdi. Chunki yuz ko‘rinishiga qarab hindlarni farqlay olmasdi. Mahalliy aholi vakillari esa bundan ustalik bilan foydalanishar — bir kuni o‘zлari oylik olishsa, ertasi kuni maosh olgani biror qarindoshini jo‘natishardi. Buning ustiga ularning aksariyati savodsiz edi. Oxiri toqati toq bo‘lgan Hershel ulardan ro‘yxatdagi o‘z familiyasining to‘g‘risiga va to‘lov qog‘oziga barmoq izlarini qoldirishni talab qildi. Sinchiklab qarasa, bir odamning barmoq izi boshqasinkiga o‘xshamas edi. Shundan so‘ng anatomiya darsliklarini varaqlab, o‘zining kashfiyotini barmoqdagi papillyar chiziqlar yordamida asosladi. Pul to‘lash borasidagi muammoni hal etgach, oradan biroz vaqt o‘tib, Bengaliyadagi qamoqxonada tartib o‘rnatishga kirishdi. Gap shundaki, sodir etgan og‘ir jinoyatlari uchun bu yerda jazo o‘tagan ayrim mahkumlar ozodlikka chiqqach, o‘zlarini ijtimoiy xavfli bo‘lmagan jinoyatlari uchun jazo o‘tib chiqqan kishidek ko‘rsatishardi. Hershelning ko‘rsatmasiga ko‘ra, mahkumlar ro‘yxatiga ularning barmoq izlari ilova qilingach, bunday hollarga butunlay chek qo‘yildi.

Dermatogifika va daktiloskopiya zamонавиу biologik va kriminalistik fanlar kesishgan nuqtasida joylashgan, o‘ziga xos ilmiy yo‘nalishlardir. Dermatogifika — inson terisidagi papillyar chiziqlarning morfologik xususiyatlarini o‘rganish orqali irlsiy belgilar, fiziologik holat va psixologik moyilliklarni tahlil qilish imkonini beradi. Uning tibbiyat, genetika va psixologiya sohalarida qo‘llanilishi, ayniqsa, irlsiy kasalliklar diagnostikasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Daktiloskopiya esa barmoq izlarini o‘rganish orqali shaxsni identifikatsiya qilish, jinoyatlarni fosh etish va huquqni muhofaza qilish sohasida muhim vosita sifatida tan olingan. Barmoq izlarining individual va o‘zgarmasligi tufayli daktiloskopik ma’lumotlar shaxsga oid ishonchli identifikatsiyani ta’milaydi.

Ushbu ikki metodologyaning o‘zaro uyg‘unligi va ilmiy asoslari ularning turli sohalarda samarali qo‘llanilishini ta’milaydi. Dermatoglifika va daktiloskopiya sohalaridagi ilmiy izlanishlar, ayniqsa, kriminologiya va sud-tibbiyot ekspertizasi, shuningdek, inson genetikasi va salomatlik holatini o‘rganishda istiqbolli yo‘nalishlar sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu metodlarning chuqur o‘rganilishi va amaliyotda keng tafbiq etilishi, kelajakda ularni yanada rivojlantirish va innovatsion yondashuvlar orqali yangi imkoniyatlarni ochib berishi shubhasiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1 "TIBBIY GENETIKANING TEKSHIRISH USULLARI " O‘quv qo ‘llanma Toshkent - «ILM ZIYO» - 2015
2. G‘ofurov A., Fayzullayev S. Genetika. - T.: «Tafakkur» nashriyoti, 2010.
- 3.. KarimovX.Y., BoboyevKT., Assesorova Y.Y., AllanazarovaB.R. Tibbiyotda sitogenetik tadqiqotlar: fundamental va amaliy jihatlari. T., 2015.
- 4.Alimxodjayeva P.R., Ino□omova D.R. Tibbiyot genetikasi. 7-nashri.T.: «ILM ZIYO», 2012
- 5.<https://www.kun.uz/news/2019/02/11/daktiloskopiya-tarixi-barmoq-izlari-qanday-kashf-qilingan>.
- 6.<https://sudex.uz/?p=6845> Daktiloskopiya va raqamli texnologiyalar.